ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

# O‘QITUVCHINING INDIVIDUAL KASBIY RIVOJLANISHINI TAKOMILLASHTIRISH

**Okilova Kamola Sadulloyevna**
**Samarqand viloyati Pedagogik mahorat markazi**
**Pedagogika, psixologiya va ta’lim**
**texnologiyalari kafedrasi dotsenti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada uzluksiz malaka oshirish ta’limi termini ta’lim oluvchilarning professional vazifalari doirasidagi bilimlarini muntazam oshirib borishni nazarda tutadi. Pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarga tutadi.

**Аннотатция.** В данной статье термин «непрерывное профессиональное развитие» относится к систематическому совершенствованию знаний обучающихся в рамках их профессиональных обязанностей. Преподаватель стремится создать необходимые условия для постоянного повышения профессионального мастерства и эффективности педагогического коллектива.

**Abstract.** In this article, the term "continuous professional development" refers to the systematic improvement of students' knowledge within the scope of their professional responsibilities. The teacher strives to create the necessary conditions for the continuous improvement of the professional skills and effectiveness of the teaching staff.

**Kalit so‘zlar:** ehtiyojlar, odatlar, shaxs, tadqiqot, natija, uzluksiz, rivojlanish, rag‘batlantirish, motivatsiya, tarbiya, tayyorgarlik, shaxs, ma’lumot.

**Ключевые слова:** компетенции, привычки, личность, исследование, результат, преемственность, организация, мотивация, обучение, подготовка, личность, информация.

**Key words:** competencies, habits, personality, research, result, continuity, organization, motivation, training, preparation, personality, information.

Respublikamizda davlat siyosatining ta’limga qaratilganligi, yangi chaqiriq va standartlar, jumladan, zamonaviy jadal taraqqiyotga erishish uchun amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar nuqtai nazaridan pedagogik faoliyat murakkablashuvi paydo bo‘ldi va natijada o‘qituvchining ijtimoiy mas’uliyati hamda moslashuvchanligiga talab kuchaydi. Ta’lim muassasalarida o‘qituvchi faoliyatiga innovatsiyalarni joriy etish zarurati bir qator sabablarga ko‘ra yuzaga keladi, jumladan, ta’limni shaxsga yo‘naltirish va insonparvarlashtirish; umumiy o‘rta ta’lim uchun milliy o‘quv dasturlarining joriy etilishi munosabati bilan o‘quv jarayonini rejalashtirishga yondashuvlarning o‘zgarishi; boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta’lim uchun davlat ta’lim dasturlari mazmunini yangilash; ta’lim tashkilotlarining raqobatbardoshligini kuchaytirish; inklyuziv ta’limni joriy etish va, umuman, ta’lim sifatini oshirish. Shunga ko‘ra, pedagog kadrlarning malakasiga qo‘yiladigan talablar ham ortib bormoqda, umumta’lim tizimida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni hisobga olgan holda uzluksiz malaka oshirish masalalari yangilanmoqda. Bunday holatda eng muhim omil o‘qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanish masalasi bo‘lib qoladi.

Ta’lim rivojlanishi uchun pedagog xodimning yangicha fikrlashi va o‘zgarishlarga moslashishi juda muhim. Bugungi kun tadqiqotlarida o‘qituvchilarda o‘zgarishlarni eng samarali tarzda keltirib chiqaradigan va o‘quv mashg‘ulotlari, o‘quvchilar uchun natijalarni yaxshilaydigan kasbiy rivojlanish tajribasining xususiyatlari hamda mohiyatini aniqlashga qiziqish ortib bormoqda. Masalan, Dezimone (Desimone) kasbiy rivojlanishning ta’siri bo‘yicha bir qator amaliy tadqiqotlar,

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

korrelyasion, kvazi-eksperimental va eksperimental tadqiqotlarni olib bordi va kamida beshta xususiyat samarali kasbiy rivojlanishga olib kelishini aniqladi: kontent(mazmun)ga e'tibor, faol o'rganish, izchillik, davomiylik va jamoaviy ishtirok.

O'rganishlarimizga ko'ra, bizningcha, o'qituvchini samarali kasbiy rivojlantirishga olib keluvchi omillarning barchasi uchun harakatlantiruvchi kuch – uning motivatsiyasi bo'lib, mavjud motiv kasbiga, bilishga va o'z-o'zini rivojlantirishga rag'batlantiradi. O'qituvchilarni uzluksiz kasbiy o'sishga bo'lgan motivatsiyasi ma'lum bir ta'lim tashkilotining ta'lim amaliyotiga innovatsiyalarni kiritish va umuman butun ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning zarur shartidir. Ko'pgina mahalliy va xorijiy olimlarning fikricha, aynan o'qituvchining to'g'ri rivojlanayotgan motivatsion sohasi muvaffaqiyatli va samarali kasbiy faoliyatning asosi, shu jumladan, shaxsning ehtiyojlari, munosabati va yo'nalishidir. Har bir sohada bo'lganidek, xalq ta'limi sohasida ham kadrlar malakasini oshirish va ba'zan ularni qayta tayyorlash davlatning ijtimoiy rivojlanishi, ilm-fan hamda texnik taraqqiyot darajasi, ishlab chiqarish va mehnat bozoridagi o'zgarishlarga muvofiq, shuningdek, pedagoglarning shaxsiy talab va ehtiyojlarini hisobga olib, kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini chuqurlashtirish, boyitish, kompetentligini rivojlantirish hamda kasbiy yo'naltirish maqsadida amalga oshiriladi. Ayniqsa, bugungi o'qituvchiga talab oshgan, maktablardagi ta'limning ijtimoiy-iqtisodiy, texnik rivojlanishdan ortda qolayotgani borasidagi tahlillar bot-bot ko'zga tashlanib turgan bir davrda o'qituvchi uchun uzluksiz kasbiy rivojlanishga motivatsion tayyorlik suv va havodek zarur.

XTXUKR jarayonida o'quv-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda kurs tinglovchilarining shaxsiy rivojlanish sifatlari va qiziqishlarini inobatga olish muhim sanaladi. O'qituvchilarda motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirish orqali pedagogik faoliyatga raqobatbardoshligini ta'minlash ularda kasbiy kompetensiya, kasbiy ko'nikma va malakalarning oshirilishiga erishiladi. Malaka oshirish jarayoni maqsadining aniq va puxta belgilanishi, o'qituvchilarning ehtiyojlariga asoslanganligi uning muvaffaqiyatini ta'minlashga poydevor yaratadi. Bunda ularning psixologik-pedagogik xususiyatlari, ehtiyoj va qiziqishlari, kognitivligi, BKM, kompetentligi, kasb mahorati, kreativligi, ijodiy layoqati kabi xususiyatlarni inobatga olish muhim. Pedagog xodimlarda ta'lim va bilimga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytirish, mustaqil ishlashni, o'z kasbiga hurmat va iftixor, qadriyat yaratish, tolerantlik tuyg'usini shakllantirish motivatsion tayyorlikni rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi. Bunda shaxsdagi motivatsiya ko'rinishlari hamda o'z-o'zini rivojlantirishga individual yondashishi, shuningdek, o'z maqsadlarini, rejalarini jamiyat, tashkilot va jamoa rejalariga bog'lay olishi yanada zaruriy shartdir.

Shu o'rinda ta'kidlash mumkinki, D.MakKlelland motiv va motivatsiyani uchta ko'rinishda namoyon bo'lishini asoslaydi:

1. Motivning paydo bo'lish sabablari.
2. Individual ravishda kashf qilingan qarashlar.
3. Affektiv vaziyatlardagi turli xil o'zgarishlar .

O'qituvchining olib borayotgan faoliyati, kasbi va o'quvchilaridan kutilmalari unda motivlar paydo bo'lish sabablarini izohlasa, uning kasbiy rivojlanish maydonini indiviual trayektoriyasini yaratishga bo'lgan ishtiyoqi UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini belgilaydi hamda o'ziga xos qarashlarni vujudga keltiradi. UKRda birlamchi sifat har bir o'qituvchining o'ziga xos individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasining mavjudligidir.

Shu o'rinda individuallik, individuallashtirish, trayektoriya tushunchalariga izoh berib o'tsak. Chunki, malaka oshirish jarayonini individuallashtirish, mavjud trayektoriya asosida harakatga yo'naltirish muammolari o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish bilan shug'ullanuvchi ta'lim

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

muassasalari uchun dolzarb. Ya'ni, tinglovchilar jarayonda nafaqat katta hajmdagi yangi o'quv materiali, axborotlarni o'zlashtirishlari, balki avvalgi bilim, ko'nikma, malakalarini joriy va istiqbol holatlarga rostlash, faoliyatlarini refleksiv tahlillash, kasbiy ehtiyojlari, qiyinchiliklari, vazifalarining maqbul yechimlarini topishlari zarur bo'ladi. Bunday holatda individuallik o'qituvchida motivatsiyani kuchaytirishga yordam beradi.

Individuallik nazariyasi asoschilaridan biri V.D.Shadrikov uni yoritar ekan, har bir inson shaxs sifatida alohida shakllanganligini va individualligini e'tirof etadi. Ta'kidlanishicha, insonning individualligi tug'ma (tabiiy) hamda hayot davomida orttirilgan xislat va fazilatlarining qorishmasidir; u xulqining turg'un shakllari, aqliy ko'rsatkichlari, qiziqishlari, maqsadlari, xatti-harakatlari va boshqalarda aks etadi; ichki olamining mohiyati qalbi bilan aniqlanadi hamda munosabati orqali namoyon bo'lishida ko'rinadi.

Individuallashtirish deganda, har bir ta'lim oluvchining individual-psixologik xususiyatlari hisobga olinadigan, ularning o'quv-biluv faoliyatini boshqarish tizimi tushuniladi. Individuallashtirilgan o'qitish esa o'quv jarayonini tashkillashtirishda individual yondashish asosida tanlangan o'qitish yo'llari va turli o'quv-uslubiy, psixologik-pedagogik hamda tashkiliy boshqaruv tadbirlari orqali ta'minlanishidir.

Malaka oshirish kurslari davomidagi kuzatishlar pedagog xodimlarning barchasi ham mustaqil ravishda kasbiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilash, faoliyatlarini qayta qurish, o'zaro ta'sir va kommunikativ munosabatlarga tez kirishish layoqatlariga yetarlicha ega emasliklari, motivatsiyaning pastligi hamda ko'p ikkilanishlar mavjudligini ko'rsatdi. Ular zaruriy adabiyotlar, malaka oshirish shakllarini tanlash, kasbiy ehtiyojlari va qiyinchiliklarini anglash, o'zlarini namoyon qilish, pedagogik g'oyalarini amaliyotga tatbiq etish, qanday hollarda ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi qaysi subyektlarga murojaati mumkinligini aniqlashlarida amaliy yordamga muhtojlik sezadilar. Shu sababdan pedagoglarning kasbiy ehtiyojlarini qoplash, muayyan muammoli vaziyatlarda maqbul yechimlarni topishda ichki salohiyatidan foydalanish, o'z-o'zini motivlashtirish, o'z-o'zini rag'batlantirish, o'z-o'zini rivojlantirish strategiyalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, pedagoglarning ijodiy qobiliyatlarini faollashtirish, innovatsion jarayonlarga doir ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, tajribalarini yuzaga chiqarish, muxtasar aytganda, kasbiy rivojlanishlarida ilmiy-metodik kuzatuvni tashkillashtirish uchun qulay sharoitlar yaratishga asosiy e'tiborni qaratish zarur. Ya'ni bir tarafdan pedagog doimiy o'sib borishi, o'z malakasini oshirishga tayyor bo'lishi, ikkinchi tarafdan, jamiyat tomonidan uning doimiy o'qishi va rivojlanishiga bo'lgan ehtiyojini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratilishi lozim. Demak, o'qituvchining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi (O'IKRT) pedagoglar uchun harakatlar algoritmini aniq rejalashtirishda qulay andaza vazifasini bajaradi.

Shu o'rinda ilmiy-metodik kuzatuv – pedagogning professional o'sishi va kompetentliligini rivojlantirishda maqbul sharoitlar yaratish, ta'lim subyektlari hamkorligini uyushtirishda boshqaruv texnologiyasini butun, tizimli, tashkiliy faoliyat sifatida amalga oshirilish jarayoni ekanligini ta'kidlash lozim [86; 214-b.].

Individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi XTXUKR muhitining chegaralari, imkoniyatlarini kengaytiradi, o'qituvchilarda o'zligini anglash, namoyon qilish, motivlarini mustahkamlash, motivatsion tayyorlik kompetentligini, shaxsiy-kasbiy sifatlarini uzluksiz rivojlantirishning qulay va samarali vositalarini ongli tanlash hamda amalga oshirishga sharoit yaratadi. Shuningdek, ularning individual imkoniyatlari, alohida o'ziga xosliklari, kasbiy qiziqishlari,

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

qiyinchiliklari, ehtiyojlari, tajribasi, malaka darajasi, shaxsiy motivlari va ijtimoiy mavqyeini inobatga olishga xizmat qiladi.

O‘qituvchining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini tuzish undan ichki motivatsiya, o‘zini motivlashtirish, hissiy barqarorlik, bilish jarayonlarini faollashtirish, kognitiv imkoniyatlarini anglash, kasbiy ehtiyojlari, qiyinchiliklari, maqsadlarini baholay olish, loyihalash va o‘sish nuqtalarini oldindan mo‘ljal olish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishini talab qiladi.

Keltirilgan fikr va dalillar asosida uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimida motivatsion-kompetentli yondashuv, faoliyatdagi xatti-harakatlar uchun tayyorlik o‘qituvchining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini mustaqil tanloviga muvofiq loyihalashini tashkillashtirish orqali amalga oshiriladi, degan xulosa chiqarish mumkin. Bu jarayonda o‘qituvchiga UKRga motivatsion tayyorlik kompetentligini rivojlantirishning samarali modeli bo‘ladigan O‘IKRTni tuzishga yetarlicha imkoniyat va shart-sharoitlar yaratish asosiy omil bo‘ladi. O‘tkazilgan tadqiqotlar ishni bu shaklda tashkillashtirish o‘qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanish samaradorligi va natijadorligiga bo‘lgan mas’uliyatini belgilaydi hamda faoliyatining maqsad, vazifalarini ongli ravishda aniqlay olishi, yuritishi, individual-psixologik imkoniyatlari, refleksiv baholash ko‘nikmalarining mukammallashishi, o‘quv motivlari darajasining ko‘tarilishi, motivatsion tayyorlik kompetentligining rivojlanishini ko‘rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – QHMMB, 24.09.2020. 03/20/637/1313-son.
2. Azimov E.G. Slovar metodicheskix terminov (teoriya i praktika prepodavaniya yazыkov). – Zlatoust, 1999. – 472 s.
3. Radjiyev A.B.. Xalq ta’limi tizimida rahbar xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni boshqarish samaradorligini oshirish (umumta’lim maktablari direktorlari misolida): ped. fan... (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – 52 b.
4. Ibragimov A.A. Xalq ta’limi xodimlari malakasini oshirish tizimini ko‘p vektorli yondashuv asosida takomillashtirish: ped.fan... (PhD) diss. – Samarqand, 2018. – 215 b.
5. Umarov L.M. Elektron axborot ta’lim resurslari asosida pedagoglar kasbiy kompetentligini rivojlantirish boshqaruvinii takomillashtirish: ped.fan... (PhD) diss. – Qarshi, 2020. – 133 b.
6. Shodiyeva M.J. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari malakasini oshirish tizimining o‘quv-metodik ta’minotini takomillashtirish: ped. fan... (PhD) diss. – Toshkent, 2019. – 220 b.
7. Shodmonova M.B. Malaka oshirish tizimida ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish: ped. fan... (PhD) diss. – Toshkent, 2019. – 182 b.
8. Po‘latova D.T. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining ehtiyojlarga asoslangan malaka oshirish tizimini takomillashtirish: ped.fan... (PhD) diss. – Namangan, 2019. – 191 b.
9. Yuldashev M.A. Xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirishda ta’lim sifati menejmentini takomillashtirish: ped. fan. dok... diss. avtoreferati. – Toshkent, 2016 y. – 92 b.
10. Elektron resurs: http: /www.yspu.ru/projects/infomet/ preemstvennost/Ssilki.htm.